

# Rasmiy munosabat

Kuni-kecha ijtimoiy tarmoq faoli Aliyeva Dilafruz Fazliddinovna (Dilya Atabayeva) viloyat hokimi qabuliga kirish masalasida amaliy yordam so'rab murojaat qilgan.

*Surxondaryo viloyatida jurnalist, blogerlar hamda ijtimoiy tarmoq faollari bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish, joylardagi muammolarni aniqlash, ularning yechimi bo'yicha tezkor choralar ko'rish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda maxsus guruhlar tashkil etilgan. Shuningdek, tasdiqlangan reja asosida viloyat hokimining OAV vakillari va blogerlar bilan uchrashuvi tashkil etib kelinadi. Ushbu uchrashuvlarda D. Aliyeva ham ishtirok etgan.*

Murojaatga asosan D. Aliyevaning muammolari tinglanib, avvalgi shu mazmunda qilgan murojaati Ichki ishlar organlari tomonidan tergov qilinayotgani, uning yakunlari bo'yicha to'plangan materiallar sud tomonidan qonuniy ko'rib chiqilishi ma'lum qilindi.